



SAYLOVLAR - DEMOKRATIK DAVLATNING KO'ZGUSI

Avaxxonov Shoxijahon Tolibjon o'g'li

Namangan Davlat Universiteti

Yuridik fakultet Yurisprudensiya yo'nalishi

YU.BU-22 guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7472786>

ARTICLE INFO

Received: 13th December 2022

Accepted: 21th December 2022

Online: 22th December 2022

KEY WORDS

Demokratiya, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, saylov, saylov tushunchasi, Saylov kodeksi, majoritar saylov tizimi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada saylov tizimi nima uning demokratik davlatdagi o'rni, fuqarolarning unda qay tarzda ishtirok etishi va hokimiyat organlarini tashkil etishda saylovlarning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Har qanday demokratik mamlakatning demokratiyani qurish asosi bu uning saylov tizimidir. Saylovlar demokratik davlatlar taraqqiyotida va fuqarolarning siyosiy huquqlari tizimida muhim konstitutsiyaviy-huquqiy instituti sifatida markaziy o'rin egallab kelgan. Aynan mazkur institut orqali fuqarolar bevosita yoki o'zlari saylagan vakillari timsolida davlat va jamiyatni boshqarish imkoniga ega. Saylov demokratiyaning yorqin ifodasidir. Demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma-yon yuradi, ular o'zaro birlashib ketgan. Saylov-demokratiya degani. Demokratiya-bu saylov degani. Ayni paytda demokratiyani saylovsiz saylovni esa demokratiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Saylov haqida so'z yuritar ekanmiz biz albatta demokratiya tushunchasiga duch kelamiz. Demokratiya o'zi nima? Bu savolga javob bermasdan biz saylov tushunchasini to'liq yoritib bera olmaymiz.

Demokratiya so'zining ildizi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Qadimgi Yunonistonda paydo bolgan ushbu tuzum bugungi kungacha xalqlar taqdirida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Demokratiya yunonchadan tarjima qilinganida „demos“- xalq, „kratos“- hokimiyat yani xalq hokimiyati degan ma'noni anglatadi. Ushbu siyosiy rejimda barcha insonlarning tengligi va erkinligini tan olishga, aholini turli jamoat tashkilotlariga birlashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini xalq ishtirokida saylash, davlat hokimiyatining taqsimlanishi va xalqning davlatni boshqarishda ishtirok etishiga asoslanganligida aks etadi. Demokratik davlat o'z fuqarolarining huquq va erkinliklarini rasmiy ravishda konstitutsiya va qonunlarda e'lon qiladi, ayni paytda, ularning iqtisodiy zaminini ta'minlaydi va kafolatlaydi.

Demokratiyada fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan,



xalq hokimiyatchiligining vosita va shakllari amalda o'rnatilgan va yuzaga chiqarilgan bo'ladi.

Demokratiya davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi.

Demokratiyaning asosiy talablari ko'pchilik hokimiyati, fuqarolar teng huquqligi, ular huquq va erkinliklari himoyalanganligi, konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi, hokimiyatning bo'linishi, davlat boshlig'i va vakolatli organlarning saylab qo'yilishidir.

Demokratiyaning *bevosita*

demokratiya (asosiy qarorlar yig'ilishlarda bevosita barcha fuqarolar tomonidan yoki referendumlar yo'li bilan qabul qilinadi) va *vakillik demokratiyasi* (qarorlar saylab qo'yiladigan organlar tomonidan qabul qilinadi) shakllari bor.

Kishilik jamiyati paydo bo'lgandanoq, demokratiyaning kurtaklari bor edi va u hozir eng taraqqiy etgan mamlakatlarda ham o'zining so'nggi cho'qqisiga erishganicha yo'q. Davlat bilan birga vujudga kelgan demokratiya insoniyat tarixi davomida turli milliy-madaniy shart-sharoitlarga moslasha borgan. Har bir davlatda, millatda o'ziga xos qadriyatlar, mentalitet, an'analar mavjuddir. Ular jamiyatdagi demokratik jarayonlarga katta ta'sir ko'rsatadi, binobarin demokratik muassasalarni shakllantirishda mazkur omillar, albatta, hisobga olinadi.

Demokratik davlatda inson manfaati, qadr-qimmat, hayoti har narsadan yuqori turadi. Bunday davlat o'zini o'zi boshqarish, ko'p partiyalilik, ommaviy axborot vositalarining erkin bo'lishi, fikrlar xilma-xilligiga sharoit yaratadi. Biroq demokratiya hamma narsada xohlaganicha erkinlik emas, qonunga asoslangan erkinlikdir. Demokratiyaning ajralmas qismi intizom, qonunlarni hurmat

qilish, boshqalarning haq-huquqini himoya qilishdir. Demokratiya tartibotlari huquqiy davlatda mukammal rivojlanib boradi.

Vakillik demokratiyasida xalq o'zi saylagan deputatlari orqali davlat ahamiyatiga molik iqtisodiy, siyosiy va huquqiy masalalarni muhokama qilish, hal etish haqida qaror qabul qilish va davlatni idora etishda qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Vakillik demokratiyasi bilvosita demokratiya deb ham ataladi.

Hozirgi kunda ko'pchilik mamlakatlar Ular vakillik demokratiyasini boshqaruv shakli sifatida qabul qildilar. Belgilangan vaqtning har bir qismida, aholi saylov jarayoni hukumatni boshqarishga mas'ul bo'lgan amaldorlarni saylash. Saylovlar davlat rahbarlari, deputatlar, senatorlar va boshqalardan kelib chiqadi. Vakillik demokratiyasini, fuqarolarning huquqlari va majburiyatlarini ustun sifatida qo'llab-quvvatlashga imkon beradigan eng yaxshi variant, eng samarali va eng samarali variantni himoya qiladiganlar ham bor.

Vakillik demokratiyasini amalga oshirishda har birimiz saylov huquqlarimizdan faol foydalanamiz. Saylov masalalariga birinchi prezidentimiz alohida to'xtalib: Hayotda adolat o'rnatish, albatta, ijtimoiy taraqqiyotning ko'pdan -ko'p omillariga bog'liq. Ammo eng muhim, hal qiluvchi omillardan biri - bu erkin, odil saylov tizimidir. Ya'ni har qaysi pog'onada - jamoami, mahallami, korxonami, tumanmi, shaxarmi, viloyatmi, davlatmi, uning rivoji va taqdiri ko'p jihatdan munosib yoki nomunosib shaxslarni, vakolatlarga ega bo'lgan rahbarlarni, shu jumladan, hayotimiz - kelajagimizni ishonib topshirgan noib-deputatlarni saylab olishimizga bog'liqdir.

Odatda, davlat hokimiyati organlari ikki uslubda: saylash va tayinlash yo'li bilan



shakllantiriladi. Umume'tirof etilgan tamoyillarga muvofiq, ijro etuvchi hokimyat va sudlov hokimiyati organlarining shakllantirilishi saylanadigan organlar tomonidan amalga oshiriladi. Shu asosda, saylovlar davlat hokimiyati organlarining butun tuzilmasiga oliy boshlang'ich legitimlikni ta'minlaydi.

Saylov - ovoz berish orqali davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tuzilmalarni tashkil etish vositasi. Fuqarolarning o'z saylov huquqini amalga oshirishi — ularning davlatni boshqarishda ishtirok etishining eng muhim shakllaridan biri. Saylov o'tkazish tartibi va qoidalari, odatda, qar bir davlatning konstitutsiyasi va boshqa konstitutsiyaviy huquqiy hujjatlarda belgilanadi. Saylov turli ko'rinishda bo'ladi. Unda aholi qatnashishi yoki ularning vakillariga ishtirok etishi mumkin. Saylov ochiq yoki yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. Qaysi organ saylanayotganligiga qarab parlamentga yoki prezidentlikka saylov, parlamentning umumiy yoki bir qismi uchun saylov o'tkazilishiga qarab yalpi yoki qisman Saylov bo'lishi mumkin. Hududiga qarab umumdavlat yoki mahalliy; o'tkazilish vaqtiga qarab navbatdagi yoki muddatdan oldingi; bir partiyali, ko'p partiyali yoki partiyasiz; muqobillik asosida va nomuqobil (agar yagona nomzod ko'rsatilsa); to'g'ri yoki ko'p bosqichli; asosiy yoki qo'shimcha saylov o'tkazilishi mumkin.

Bizning mamlakatimizda saylov tizimi Konstitutsiyamizning maxsus bobida belgilab qo'yilgan. Barcha mamlakatlarning Konstitutsiyalarida saylov tizimi uchun maxsus boblar ajratilmagan. Bizning Konstitutsiyamizda saylov tizimining konstitutsiyaviy asosda belgilanishi bu

huquqiy institutning ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bizning qomusimizda saylov tizimi 117-moddada mustahkamlangan. Unda fuqarolarning saylov huquqini, saylov huquqi prinsplarini, qaysi organlar saylov yo'li bilan tashkil etilishini, saylov o'tkazish muddatlari, Oliy Majlis Senati a'zolarini saylash tartibini, kimlar saylovda qatnashmasligini va Markaziy saylov komissiyasini tashkil qilish hamda vakolatlarini belgilovchi qoidalardan iborat. Saylov munosabati ko'plab qonun va boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi. Saylov tizimi barcha saylov o'tkazilishi bilan bog'liq tartiblar va barcha tartiblarni mustaxkamlovchi, o'rnatuvchi huquqiy normalar yig'indisidir.

Bizning mamlakatimizda saylovning majoritar tartibidan foydalaniladi. Majoritar tizimda saylovchi aniq bir nomzodga ovoz beradi va saylovchilarning yarmidan ko'pi ovozini olgan nomzodlar saylangan hisoblanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, saylov tizimini demokratik mamlakatlar saylov tizimiga mos ravishda tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Natijada, saylovlar xalqaro andozalarga mos ravishda o'tkaziladigan bo'ldi. Saylovlarning ko'ppartiyaviylik asosida o'tishi, nomzodlar sonini saylanadigan deputatlar soniga nisbatan ko'p bo'lishi demokratiyaning tantanasi bo'ldi desak xato bo'lmaydi. Shu davrgacha O'zbekistonda bo'lib o'tgan barcha saylovlar demokratiya tamoyillariga, xalqaro andozalarga mos ravishda o'tkazilganini saylovlarda ishtirok etgan xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning kuzatuvchilari tomonidan e'tirof etilgan. Davlatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy hayotdagi islohotlar, jamiyat va davlat hayotidagi



liberallashtiruvlar saylov tizimiga ham ta'sir qilmay qolmadi. Bu o'zgarishlar Konstitutsiya va qonunlarimizda o'z ifodasini topgan. Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra vakillik organlari va Prezident saylovi kuni aniq belgilab qo'yildi. Endi mamlakatimizda saylovlar, ularning vakolati tugaydigan yilda, dekabr oyining uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladigan bo'ldi. Ana shu islohotlar haqida so'z yuritar ekanmiz davlatimizda qabul qilingan Saylov Kodeksini alohida takidlab o'tish lozim. Ushbu qonunni 2019-yil 25-iyunda qabul qilinishi bilan saylov haqidagi barcha huquqlarimiz yagona hujjatga jamlandi. Ushbu g'oyani yurtboshimiz 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida „...xalqaro norma va standartlarga javob beradigan yagona Saylov kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish lozim“[1]deb bayon etgan edi.

Saylov huquqimizga davlatimiz tomonidan juda katta e'tibor va imkoniyatlar yaratib berilmoqda ekan, ushbu say harakatlarga biz ham munosib javob qaytarishimiz, saylovlarda aktiv tarzda ishtirok etishimiz, huquqiy savodxonligimizni muntazam ravishda oshirib borishimiz kerak. Zeroki saylovlardagi faol harakatlarimiz bilan biz o'z taqdirimizga, mamlakatimiz taqdiriga befarq emasligimizni namoyon qilamiz. Hokimiyatni amalga oshirishda o'z ovozimizni berishimiz katta ahamiyaga ega. Chunki mamlakatni boshqaruvchi kuchlarni o'zimiz ovozimiz orqali saylaymiz. Aynan ular bizning nomimizdan, butun xalq nomidan katta mas'uliyat bilan o'z vakolatlarini amalga oshiradi. Bu esa demokratik, huquqiy, fuqarolik jamiyatining asosidir.

Saylov tizimi kundan kunga zamon shiddat bilan rivojlangani sari islohotlarga uchrab bormoqda. Jaxon saylov tizimida turli yangiliklarni kuchga kirishini ko'rmoqdamiz. Globallashuv jaroyi saylov tizimiga ham tasir qilmoqda misol uchun saylovlarni online tarzda otkazish sinov tariqasida kirib kelmoqda.

Elektron ovoz berish shuningdek, nomi bilan tanilgan elektron ovoz berish ishlatadigan elektron yordam berish yoki ovoz berish va hisoblashda g'amxo'rlik qilishni anglatadi.

Muayyan dasturga qarab, elektron ovoz berish mustaqil elektron shaklda ishlatilishi mumkin ovoz berish mashinalari (EVM deb ham yuritiladi) yoki Internetga ulangan kompyuterlar. U bir qatorni qamrab olishi mumkin Internet xizmatlar, jadvalga kiritilgan natijalarni asosiy uzatishdan tortib, umumiy ulanadigan uy jihozlari orqali to'liq ishlaydigan onlayn ovoz berishga qadar.

Darajasi avtomatlashtirish qog'ozli byulleteni belgilash bilan cheklanishi mumkin yoki ovozlarni kiritish, ovozlarni yozib olish, ma'lumotlarni shifrlash va serverlarga etkazish hamda saylov natijalarini konsolidatsiya qilish va ro'yxatga olishning keng qamrovli tizimi bo'lishi mumkin.

Elektron ovoz berishning munosib tizimi ushbu vazifalarning aksariyatini nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'rnatilgan standartlarga rioya qilgan holda bajarishi va shuningdek, kuchli talablar bilan muvaffaqiyatli kurashishga qodir bo'lishi kerak. xavfsizlik, aniqlik, yaxlitlik, tezkorlik, maxfiylik, auditorlik, kirish imkoniyati, iqtisodiy samaradorlik ekologik barqarorlik.



Elektron ovoz berish texnologiyasini o'z ichiga olishi mumkin perforatorlar, optik skanerlash tizimlari va ixtisoslashgan ovoz berish kioskalari (shu jumladan o'z-o'zini ta'minlash uchun) elektron ovoz berish tizimlarini to'g'ridan-to'g'ri yozib olish yoki DRE). Shuningdek, u uzatishni o'z ichiga olishi mumkin byulletenlar va shaxsiy telefonlar orqali ovoz berish kompyuter tarmoqlari yoki Internet.

Umuman olganda, elektron ovoz berishning ikkita asosiy turini aniqlash mumkin:

hukumat yoki mustaqil saylov organlari vakillari tomonidan jismoniy nazorat qilinadigan elektron ovoz berish (masalan, saylov uchastkalarida joylashgan elektron ovoz berish mashinalari);

saylovchi o'z ovozi har qanday joydan saylov organlariga elektron shaklda taqdim etadigan Internet orqali masofadan

elektron ovoz berish (i-ovoz berish deb ham ataladi).

Elektron ovoz berishni qulaylikari shundaki bunda inson uyidan chiqmasdan ortiqcha ovvoragarchiliklarsiz, qog'oz hujjatlarsiz o'z saylov huquqini amalga oshirishi mumkin. Bu saylov tizimi ayniqsa pandemiya sharoitida juda qo'l keladi. Barcha narsani yaxshi va yomon tomoni bolganidek, elektron ravishda ovoz berishning ham kamchiliklari yetarli darajada. Ovozlarini hisoblashda xakkerlik hujumlari, ovozlarni soxtalashtirish mumkinligini ta'kidlab o'tish kerak.

Qay tarzda saylovda qatnashishdan qat'iy nazar eng muhimi unda ishtirok etishdir. Bu bizni huquqiy ongga, huquqiy savodxonlikka ega ekanligimizni ko'rsatuvchi omildir.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr .
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston", 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Saylov Kodeksi. 2019 yil iyun.
4. WWW.LEX.UZ